

OYBEKNING O‘XSHASHSIZ O‘XSHATISHLARI

Nizomiddin MAHMUDOV¹

Filologiya fanlari doktori, professor
O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti direktori

Yorqin va komil badiiy iste’dod asosida hamisha teran va muntazam kuzatuvchanlik, turfa olamning kamalak ranglarini zakiylik bilan ko‘ra olish va ularning tirikligiga, tabiiyligiga putur yetkazmagan holda ko‘rsata olish yotadi. Zero, kuzatuvchanlik va mukammal his qilish, aslida, behad nozik va nodir bir malaka bo‘lib, u har qanday badiiy iste’dod takomilinyng ibtidosidir. Bu ma’noda Oybek she’riyati behad ibratli bo‘lib, uning har bir she’ri nafis va raso kuzatishlar, mantiqli mushohadalar natijasi ekanligi ravshan ko‘rinib turadi.

Oybek she’riyatida betakror o‘xshatishlar o‘quvchi tasavvurini shoshirib, hayratini oshiradi. Ta’kidlash lozimki, bu o‘xshatishlarning har biri til tilsimining afsungari, tabiatning iddaosiz oshig‘i bo‘lgan Oybekning kuzatuvchanligiga, tabiat va insonning murakkab hayotini ipidan ignasigacha, butun ikir-chikirlarigacha ko‘ra va ko‘rsata olishiga, borliqni o‘ziga xos yo‘sinda, “oybekona” idrok qilishiga xolis va xarakterli dalildir. Chunki o‘xshatishlar she’riyatda xilma-xil maqsadlar bilan qo‘llansa-da, ularning sifati, ayni maqsadlarga qay darajada bo‘ysundirilishi, qisqasi, ularning poetik mazmun darajasi, badiiy salmog‘i shoirning kuzatuvchanligiga, poetik idrokiga bog‘liq.

Tilshunoslikda, umuman, filologiya ilmida har qanday o‘xshatish munosabati tilda aks etar ekan, u albatta, to‘rt unsur dan, ya’ni o‘xshatish subyekti, o‘xshatish obrazi, o‘xshatish asosi va o‘xshatishning shakliy ko‘rsatkichidan tarkib topishi e’tirof qilinadi. Sof lingvistik nuqtayi nazardan, bu to‘rt unsur bir sodda gap doirasida ifodalanar ekan, gapning shakli va mazmuni o‘rtasidagi mutanosiblik buziladi va gap nomutanosib qurilishli sodda gap sifatida talqin qilinadi. Boshqacha qilib aytganda, o‘xshatish munosabati ifodalangan sodda gaplarning mazmun sig‘imi hamisha katta bo‘ladi, ya’ni kichik shakl katta (murakkab) mazmun ifodasi uchun xizmat qiladi. Bu esa she’r poetikasi uchun ham alohida ahamiyatlidir, chunki ayni holat shoirga turli narsa-hodisa, murakkab holat va shu kabilarning behad ixcham tasvirlarini, yorqin obrazlarini yaratish imkonini beradi.

Aytish lozimki, har qanday o‘xshatishning lingvopoetik asosini o‘xshatish obrazi (etaloni) tashkil qiladi. O‘xshatishning poetik qimmatini ham ana shu o‘xshatish obrazi belgilaydi. Oybekning she’rlarini o‘qiganda, shu narsaga to‘liq ishonch hosil qilish mumkinki, Oybek bu holatni to‘liq, aniq va tiniq tasavvur qilgan, shuning uchun ham u o‘z she’rlarida o‘xshatishga murojaat qilar ekan, zukko kuzatuvchi sifatida badiiy niyatiga favqulodda muvofiq va yangi o‘xshatish obrazlarini qo‘llaydi.

¹ N.Mahmudovning to‘plamga kiritilgan maqolalari quyidagi manbadan olindi: N.Махмудов. Тилимизнинг тилла сандиги. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2012. – 152 б.

Oybek o'zining "Hamza" nomli dostonida Shohimardon qishlog'ining o'tmishdagi manzarasini tasvirlar ekan, shunday yorqin misralar tuzadi²:

Pastda qishloq, toshlarga qapishibdi zich – Faqir uylar qaldirg'och inlari kabi.

Kuzatuvchan shoir faqir uylarni qaldirg'och inlariga o'xshatadi, ayni o'xshatishda "qaldirg'och inlari"ning o'xshatish obrazi sifatida qo'llanishi Oybekning teran va favqulodda o'tkir nigohi mahsulidir. Agar faqir uylar to'lig'icha tasvirlanadigan bo'lsa, hatto bir-ikki sahifa ham kamlik qilardi va shunda ham bu yerdagiday, ya'ni bir-ikki so'z bilan ifodalanganidagiday yorqin va ta'sirli surat yuzaga kelmagan bo'lardi. Ma'lumki, qaldirg'ochning inini hamma ko'rgan, u loydan qilingan bo'ladi va xuddi mayda guvala kesak bilan urilgan devorga o'xshaydi. Ayni paytda, behad kichik va ko'rimsiz bo'ladi. Ana shunga ko'ra faqir uylar qaldirg'och inlariga o'xshatilgan, bunda bu predmetlar muayyan bir belgi asosida emas, balki bir necha belgi asosida bir-biriga o'xshatilgan, o'xshatish asosidagi belgi yaxlit. Ana shuning uchun ham faqir uylarning benazir mukammal va "nofaqir" kartinasi chizilgan. Bu kartina oybekona poetik jarangga ham, behad quyuc rangga ham va shunga ko'ra, kuchli ekspressiyaga ham ega. Nozik kuzatishlar natijasida yaratilgan o'xshatishlar Oybek she'riyatida juda ko'p, mana ulardan yana ayrimlari:

Do'konlar qalashgan ari iniday, •

Qay tomon qarasang - ziynat buyumlar... ("Bayrut")

Mana suvga tushar polvon qiz,

To'lqinlarni hech pisand qilmay...

Sochlar suvda qora ilonday ("Qizlar").

Oltin go'za po'choqlar singari ochilgandi

Ko'kda g'uj-g'uj yulduzlar ("Yangi oy chikkanda"),

Oybek, ko'pincha, shunday o'xshatish obrazlarini qo'llaydiki, biz ularning favquloddaligidan, tutilmaganligidan, faqat Oybekkagina xosligidan zavqlanamiz, adoqsiz huzur va hayrat tuyamiz. Uning "Shoir bilan suhbat" she'ridan olingan mana bu quyima misralardan lazzatlanaylik:

Men ipak qurti kabi Xayolimga o'raldim.

Tuyg'ularim girdobi Orasida yo'qoldim.

Parchada murakkab hissiy holatning go'zal tasviri berilgan. Bu hissiy holatning asosiy va ajoyib mazmuni birinchi ikki misrada o'zining juda ham nozik ifodasini topgan, keyingi ikki misra esa ana shu ifodani yana ham konkretlashtiradi. *Ipak qurti kabi* tarzidagi o'xshatish obrazi ayni o'rinda nihoyatda original va ayni holat ifodasi uchun favqulodda muvofiq. Ma'lumki, ipak qurti ipak chiqarib o'zini o'zi o'raydi va pilla hosil bo'ladi, o'zi esa uning ichida qolib ketadi, pilla – oppoq, u ana shu oqlik ichra pinhon bo'ladi. Shoir esa o'z xayoliga o'raladi, uni oq, pilladay oppoq xayollar qurshaydi, ana shu xayollar, olovli tuyg'ular girdobi o'zining besarhad bag'riga oladi, shu oppoq bag'irda shoir pinhon bo'ladi. Teran va tarang mutanosiblik, o'xshashi yo'q, haqiqiy oybekona o'xshatish. Bu o'xshatishning poetik salmog'i va salohiyati shundaki, shoir u orqali faqatgina u yoki bu darajada tasavvur qilish mumkin bo'lgan hissiy holatni qo'l bilan ushlab ko'rish mumkin bo'lgan darajada "moddiylashtirib", yorqin surat darajasida konkretlashtirib ko'rsata olgan.

² Barcha misollar Oybekning 19 jildlik "Mukammal asarlar to'plami"ning 1 - 3-tomlari (Toshkent, 1975, 1976)dan olingan)

Mana bu parchalardagi o'xshatishlarda ham Oybekning o'tkir nigohini aniq sezish mumkin:

Bexosdan uzilgan *shoda dur kabi*

To'kildi umidning rangli barglari ("Qoraxat").

Muhtojlikning izg'irinida

Kuz bargidek tushadi o'yin ("Dehqon. Qora kechalar")

Oybek o'z she'rlarida *quyosh, oftob, kuz, chechak, gul, bahs, or, qush, dengiz, daryo, shafaq* kabi so'zlarni o'xshatish obrazlari sifatida faol ravishda qo'llaydi. Bu shoirning insonga, tabiatga va hayotga bo'lgan tuganmas muhabbatini, bu muhabbatni yuksak ohanglarda kuylaganligini, inson va tabiat tasviri uchun tabiatning o'zidan betinim rang va ohang izlaganligini ko'rsatadi. "San'at haqida" nomli she'rida "Toshga ham, rangga ham, so'zga ham Hayot nuri bilan ber jilo" degan shoir mana bunday tabiiy, jonli va jiloli o'xshatishlarni yaratadi.:

O'zbek eli, bir zamonlar

Quyosh kabi porlaganding ("O'zbek eli").

Qayda bo'lmasin dildor,

Xayolchan ko'zlari bor...

Ko'ngli *kuz quyoshidek*

Iliq, mayin, beg'ubor ("Oltin chaqnar...")

Bir boshqa ko'ngilding,

Chaqaloq kabi kulding...

Yo'qlik seni oldi.

Yaproq kabi uchding,

Cho'llarnimi quchding? ("Tursunoyga")

Daryolar singari ko'nglim jo'shqindi,

Bir tola soching-la boglanib qoldim ("Uzoqdan turib...")

Quyosh kirdi hayot ichiga

Baxt gulladi *bahor singari* ("Dehqon")

Oybek o'xshatish obrazlarini shunday ustalik bilan topadiki, natijada bu obraz nisbat berilayotgan mavhum tushuncha qabariq aniqlik kasb etadi. Masalan:

Alam qalbimni chaqar

Xira chivinlar kabi ("Alam...").

Bu misralarni o'qiganda, inson qalbini muvozanat mehvaridan chiqarib yuboradigan darajadagi achchiq alam nishli chivin shamoyilida kitobxon ko'zi o'ngida namoyon bo'ladi, achchiq alamning ochiq basharasi bo'y ko'rsatadi.

Yoshlikning g'ayrat otidan tushmaydigan shahdu shiddati, qo'rquvni o'sal qiladigan shijoati, betinim harakatga undovchi qalb po'rtanalari quyidagi misralarda sho'x toychanning o'ynoqlashini tomirlardagi qonlarning tizginsiz o'ynoqlashiga nisbatlanishidan iborat ohorli o'xshatish vositasida betakror badiiyat bilan ifodalangan:

Tomirlarda qonlar ham *Sho'x toychadek* O'ynoqlar... ("Terimda")

Oybekning o'xshashsiz o'xshatishlarida muayyan an'anaviy o'xshatish obrazlari tamoman yangi, faqat Oybekning o'tkir nigohiga xos mazmunlar ifodasi uchun xizmat qildiriladi. Mana bu betakror misralarga e'tibor beraylik:

Madyor qovun so'yib, totini Maqtar silkib boshini asta.

Har tilimi oy o'rogiday,

Tomchilaydi lablardan sharbat ("Qizlar" dostoni).

Avvalo, aytish lozimki, oyni, yangi oyni (hilol) o'roqqa o'xshatish juda eskidan bor. Oy o'rog'ini (yangi oyni) go'zal yorning qoshiga nisbatlash ham qadimdan mumtoz adabiyotimizda an'anaga kirgan. Ulkan shoir M.Shayxzoda "Oy bilan suhbat" she'rida yangi oyni oldin o'roqqa o'xshatadi, keyin shunday oyni quloqqa o'xshatib, mutlaqo original ko'chim yasaydi.

Oybek esa ana shunday ko'p qo'llangan oy o'rog'ini qovunning tilimiga nisbatlaydiki, bu faqat va faqat oybekona o'xshatishdir. Oybekning *har tilimi oy o'rog'iday* tarzidagi o'xshatishida faqat shakl emas, balki u bilan bir qatorda qovun tilimining sariq rangi ham (va hatto totli ta'mi ham) badiiy ta'kid olgan. Bu o'xshatish obrazi yana shuning uchun ham behad o'rinliki, tasvirda qoq yarim kechadagi voqea haqida gap bormoqda, demak, oyni tasvirda zaruriydir.

Mahoratli shoir xalq tilida mavjud bo'lgan mashhur o'xshatishlardagi qiyoslanayotgan predmetlarning o'rnini almashtirish orqali ham o'z badiiy niyatiga uyg'un tamomila yangi, ohorli o'xshatishlarni yaratadi. Xalq orasida o'xshatish qolipida tuzilgan *Umr - oqar daryo(day)* degan hikmatli gap keng tarqalgan. Oybek ayni shu o'xshatishni qayta quradi, ya'ni undagi o'xshatish subyekti (*umr*) bilan o'xshatish obrazi(daryo)ning o'rnini almashtiradi, endi shoir yaratgan yangi o'xshatishda o'xshatish subyekti o'xshatishning obraziga aylanadi. Bunday o'xshatish kutilmaganligi bilan ham kitobxon diqqatini darhol o'ziga jalb etadi:

Abadiyat va *umr*

Singari oqadi suv ("Abadiyat...")

Oybek ba'zan shunday o'xshatish obrazlarini topadiki, ular tasvir aniqligi va badiiyligini ta'minlash bilan bir paytda yumoristik ohangning chiroyli ifodasi uchun ham xizmat qiladi. Mana bir misol:

Faylasufdek salmoqlanib bir qator teva

Hayqirishib, ko'pik sohib shunda saf tortar.

Egalari "Bu nesi?" deb hayronlik bila

Polizdagi qo'riqchidek qotishib qolar ("Radio tinglaydir").

Bu parchada ikkita o'xshatish obrazi – *faylasufdek* va *polizdagi ko'rikmidek* – qo'llangan bo'lib, ulardan, ayniqsa, birinchisi alohida diqqatga sazovor, chunki u teva (tuya)ga nisbat berilgan. *Faylasuf*ning vazmin va salmoqli odimlashi bilan tuyaning bitta-bitta, salmoq bilan yurishi o'xshatilgan. Tabiiyki, bu kutilmagan tashqi o'xshashlik (ikkinchi misrada soxta *faylasuf*ning yana ayrim «xislatlari»ga ham ishora bor) kishida yengil kulgi qo'zg'aydi. Bu chiroyli va ohorli o'xshatish faqat tasvir aniqligi uchungina emas, balki yumoristik fon ifodasi uchun ham xolis xizmat qilgan. Ayni o'xshatishning lingvopoetik mexanizmi va formal hajmi boshqa o'xshatishlardan mutlaqo farq qilmasa-da, shoirning mahorati bilan u polifunksional vositaga aylangan, aytish mumkinki, ayni o'xshatish yana ham "ishchanlashgan".

Oybek yomon, nafratga loyiq kishilar, narsa-hodisalarni tasvirlar ekan, ularga nisbatan behad salbiy bo'yoqqa ega bo'lgan o'xshatish obrazlarini qo'llaydi. Masalan, "Zafar bizniki!" she'rida fashist galalariga o'tli nafratini ifodalar ekan, "*Cho'chqalardek yanchib kiradi Tinch o'lkalar chamanzoriga*" deb yozadi. "Dehqon" she'rida soxta shayx-eshonlarga bo'lgan nafratini "*Bir-biridan olg'ir va yaltoq Dum o'ynatar och it singari*" tarzida ifoda etadi.

Oybek she'rlaridagi o'xshatishlar lingvopoetikasidagi yana bir muhim va maqbul holat shundan iboratki, shoir o'xshatish yaratar ekan, ko'p hollarda o'xshatish

subyektiga shunday o'xshatish obrazini tanlaydiki, ular o'rtasida kuchli kontrast yuzaga keladi. Bu kontrast o'xshatishning badiiy-estetik qimmatini, uning tasviriyligi, obrazlilikini yanada oshiradi. "Yangi yil" she'ridan olingan mana bu parchaga e'tibor qilaylik:

Kampir tarix yana yosh *bir qiz kabi* Guldor kashtasini tikishga yoydi.

Shoir "kampir tarix" uchun *yosh bir qiz* tarzidagi o'xshatish obrazini munosib ko'rgan, kampir va qiz tushunchalari o'rtasidagi o'tkir va abadiy kontrast o'xshatishning poetik mazmunini yana ham bo'rttirgan. Yangi yil obrazi juda chiroyli va betakror ravishda ta'kidlangan va tasvirlangan. "Kampir tarix"ga yana bir yosh qo'shildi, yana ham qaridi, ammo u yana ham keksaygan bu yoshida ham yana "guldor kashtalar tikishga" shay, yana yaratishlar, yana qurilishlar, yana go'zalliklar... Oybek she'rlarida bunday kontrastga asoslangan yorqin o'xshatishlar benihoya ko'p. Mana, ularning ayrimlari:

Zarbdor bo'lgan chol otang *qirchillama yigitdek*.

Fildir terimda onang,

O'zi *kichik chigitdek* ("Qishloq qizi – student"),

Mana, *yigitday* ishlar Umrzoq ota,

Ketmonning zarbidan, yerlar larzada ("Shodiyona").

Aytish lozimki, Oybek she'riyatida o'xshatishlar lisoniy mohiyati jihatidan biron-bir alohida, juda farqli xususiyatga ega bo'lmasa-da, badiiy-poetik jihatdan o'ziga xos va o'xshashsizdir. Oybek she'riyatidagi har bir o'xshatish kuzatuvchan shoirning o'tkir nigohi, nafis va vazmin mushohadasining mahsulidir. Hayot va tabiatning chin oshig'i bo'lgan shoir so'zning jilosini, turfa tushunchalarning badiiy timsollarini hamisha tabiatdan, hayotning o'zidan izladi va uni butun mukammalligicha topish baxtiga muyassar bo'ldi.

Oybek she'riyatidagi o'xshatishlarning lingvopoetikasi yana ham mufassal, yana ham chuqurroq o'rganilmog'i lozim. Oybekning betakror o'xshatishlari misolida tilimizning ham, badiiy-mantiqiy taxayyulimizning ham sarhadsiz imkoniyatlariga yana bir bor ishonch hosil qilish mumkin.